ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -5

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 5

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

TABIIY GAZNI PAST HARORATLI AJRATIShNING TEXNOLOGIK JARAYONLARINI AVTOMATLAShTIRISh VA BOSHQARISHNING TIZIMLI TAHLILI

Amirov Shaxzod Nurmuhammad o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti
E-mail: shaxzodamirov13@gmail.com
Tel: +998996669446

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiiy gazni past haroratda ajratishda qo‘llaniladigan avtomatlashtirilgan boshqarish texnologiyalarining keng qamrovli tizimli tahlili keltirilgan. Tadqiqotda gazni past haroratli ajratish qurilmalarining ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan asosiy boshqarish o‘zgaruvchilarini, jumladan gazning harorat, bosim, sarfi, gaz namligi hamda va DEG(dietilenglikol) sarfini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotda jarayonlarning ishonchliligini oshirish va past haroratli separatsiyalash va issiqlik almashinish qurilmalarida gidrat hosil bo‘lishi hamda jarayonning beqarorligi bilan bog‘liq operatsion xavflarni kamaytirish uchun mo‘ljallangan zamonaviy avtomatlashtirish arxitekturalari, boshqarish strategiyalari va intellektual monitoring tizimlari ko‘rib chiqiladi. Matematik modellashtirish va tizimli muhandislik yondashuvlari asosida jarayonning dinamik holatini baholash, an’anaviy va ilg‘or boshqarish algoritmlarining samaradorligini alohida ko’rib chiqilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli egizaklar, intellektual boshqarish tizimlarini foydalanish tabiiy gazni past haroratli ajratish jarayonini samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, energiya sarfini kamaytirish va ish xavfsizligini oshirishga yordam berishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: past haroratli ajratish, avtomatlashtirilgan tizimlar, tizimli tahlil, matematik modellashtirish, raqamli egizaklar, intellektual boshqarish.

Аннотация. В данной статье представлен комплексный системный анализ технологий автоматизированного управления, применяемых при низкотемпературной сепарации природного газа. Особое внимание в исследовании уделено определению ключевых управляющих переменных, оказывающих существенное влияние на работу установок низкотемпературной сепарации газа, включая температуру, давление, расход газа, его влажность, а также расход ДЭГ (диэтиленгликоля). В работе рассмотрены современные архитектуры автоматизации, стратегии управления и интеллектуальные системы мониторинга, предназначенные для повышения надёжности технологических процессов и снижения эксплуатационных рисков, связанных с гидратообразованием и нестабильностью процессов в аппаратах низкотемпературной сепарации и теплообмена. На основе подходов математического моделирования и

ISSN 3030-3907

системной инженерии дана оценка динамического состояния процесса, а также отдельно рассмотрена эффективность традиционных и передовых алгоритмов управления. Результаты показывают, что использование цифровых двойников и интеллектуальных систем управления способствует повышению эффективности процесса низкотемпературной сепарации природного газа, улучшению качества продукции, снижению энергопотребления и повышению производственной безопасности.

Ключевые слова: низкотемпературной сепарации,автоматизированные системы, системный анализ, математическое моделирование, цифровые двойники, интеллектуальное управление.

Abstract. This article presents a comprehensive systems analysis of automated control technologies applied in the low-temperature separation of natural gas. The study focuses on identifying key control variables that significantly influence the operation of low-temperature gas separation units, including temperature, pressure, gas flow rate and humidity, as well as the flow rate of DEG (diethylene glycol). The paper examines modern automation architectures, control strategies, and intelligent monitoring systems designed to enhance the reliability of technological processes and mitigate operational risks associated with hydrate formation and process instabilities within low-temperature separation and heat exchange equipment. Using mathematical modeling and systems engineering approaches, the dynamic state of the process is assessed, and the effectiveness of both traditional and advanced control algorithms is evaluated separately. The results indicate that employing digital twins and intelligent control systems helps to increase the efficiency of the low-temperature natural gas separation process, improve product quality, reduce energy consumption, and enhance operational safety.

Keywords: low-temperature separation, automated systems, system analysis, mathematical modeling, digital twins, intelligent control.

KIRISH.

Tabiiy gazlar issiqlik va energiyaning muhim manbai va kimyo sanoatining qator tarmoqlari uchun asosiy xom ashyo manbaidir. Gaz konlarining tabiiy gazlari doim qattiq, yirik va gazsimon komponentlarga va namgarchilikka ega bo‘ladi. Bu gazlarga ishlov berishda, birinchi navbatda gaz tarkibidagi suv va suyuq uglevodorod fazalar tortib olinadi va uzoq masofalarga tashiladi yoki qimmatbaho uglevodorod kondensat saqlab qo‘yiladi. Past haroratli ajratish-texnologik jarayonlar kompleksi bo‘lib, qazilma boylik sharoitlarida gaz okimidan, past xaroratlarda suv va kondensatni ajratib olishga qaratilgan. Bunda drossellash amali ko‘llangan, ya’ni bosimlar farqi hosil qilingan, adiabatik kengayish qilib, kandaydir ish bajarilgan yoki ixtiyoriy yondashuvlardan

ISSN 3030-3907

foydalanib gaz sun'iy ravishda sovitilgan, yoki "Ranke effekti" qo'llanilgan (sovutish qurilmalaridan foydalanilgan suv va havo yordamida issiqlik almashinilgan va h.k). Covitishning eng oddiy va samarali usuli-drosellash bo'lib, Joul - Tomson effektiga asoslanadi.

Past haroratli ajratish (PHA) gazni fraksiyalarga ajratishda, boshqa narsalarga so'rilishida va turli kimyoviy jarayonlarda ishlatiladi.

So'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarish hajmi ortgan sari, yoqilg'i energetikasiga bo'lgan talab uzluksiz ortmoqda. Natijada, tabiiy gazga bo'lagan ehtiyoj ya'nada oshishi oqibatida, gazni qayta ishlash zavodlarida gazni past haroratli ajratish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, gazni past haroratli ajratish jarayonini zamonaviy intellektual boshqarish usullari hamda ularning cheklovlari, texnologik modernizatsiya istiqbollarini tizimli tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar tabiiy resurslarni tejashga hamda neft va gaz sanoatning barqaror rivojlanish tendensiyalariga mos keladigan texnologik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT USULLARI VA OLINGAN NATIJALAR.

Bugungi kungacha mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy boshqaruv tizimlarida asosan klassik PID-regulyatorlari qo'llanilgan bo'lib, ular statik rejimlarda qoniqarli natijalar bersa-da, noaniqliklar, tashqi ta'sirlar va rejimlarning tez o'zgarishi sharoitida samaradorligi pasayadi. Shu sababli, so'nggi tadqiqot ishlarida texnologik jarayonlarni intellektual va gibrid boshqarish usullariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, past haroratda separatsiyalash jarayoni parametrlarini boshqarishda intellektual texnologiyalarni qo'llash eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. Ushbu umumiy tahlil natijalari bo'yicha quyida eng muhim ilmiy-tadqiqot ishlariga havolalar keltiramiz.

[1] Ishda tadqiqotning asosiy maqsadi gaz qazib olish jarayonlarini avtomatik boshqarish ob'ektlari sifatida tahlil qilingan. Tadqiqotning ob'ekti sifatida tabiiy gazni past haroratda separatsiya usuli asosida gazni kompleks tayyorlash qurilmasi olingan bo'lib, bunda quyidagi natijalar olingan:

- past haroratli separatsiya usulining o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;
- jarayon elementlarining matematik modellari ishlab chiqilgan;
- hisoblash tajribasi modellarning texnologik jarayonga mosligi tasdiqlagan.

[2] Maqolada HYSYS dasturiy ta'minotidan foydalangan holda gaz va kondensatni kompleks tayyorlash qurilmasining past haroratli separatsiyalash qurilmasini dinamik modellashtirish ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi past haroratli separatsiyalash qurilmasining (PHS) ish rejimini optimallashtirishdan iborat. Dasturiy ta'minotda PHS jarayonining imitatsion dinamik modeli

ISSN 3030-3907

yaratilgan. Apparatlarni real vaqt rejimida modellashtirish amalga oshirilan bo‘lib, berilgan texnologik rejimda har bir elementning o‘tkazuvchanlik qobiliyatiga bog‘liqligi o‘rganilgan. Natijada tadqiq qilinayotgan qurilmaning ish unumdorligini amaldagi ish rejimiga qaraganda 17% ga oshgan.

[3] maqolada past haroratli separatsiyalash jarayonining matematik modeli yaratilgan. Bu separatsiyalash jarayonini samarali boshqarish tizimini sintez qilishning uslubiy asosi bo‘lgan texnologik parametrlar o‘rtasidagi ob’ektiv mavjud munosabatlarni aniqlashga imkon bergan. "Kirish-chiqish" nuqtai nazaridan past haroratli separatsiyalash jarayoni moddalar miqdorini saqlash qonuni va suyuqlik va gaz fazalari o‘rtasida moddalar almashinuvi qonunlari asosida olingan. Past haroratli separatsiyalash jarayoni dinamikasining matematik modelini chiziqlashtirish amalga oshirilgan va shu asosida ob’ektning matritsali uzatish funksiyasi olingan, bu esa kirish va chiqish qiymatlari o‘rtasidagi ichki o‘zaro ta’sirlarini shakllantirish jarayonini amalga oshirishga imkon bergan.

[4] Ishda yangi ishlab chiqilgan yeksenel oqim ixcham separatori orqali gaz suyuqligini separatsiyalashning nochiziqli jarayonini modellashtirish uchun to‘plangan neyron tarmoqdan foydalanish taklif etilgan. 1-Separatorning separatsiyalash samaradorligini bashorat qilish uchun bir nechta standart teskari tarqalish o‘qitish algoritmlari o‘rgatilgan, bu tayanch modellar keyinroq bitta murakkab modelni hosil qilish uchun birlashtiriladi. Kompozit modelda o‘qitilgan neyron tarmoqlarning ishtirokchisining og‘irligini taxmin qilish uchun asosiy komponentli regressiya tenglamasi qo‘llanilgan. Ushbu ishda o‘qitilgan neyron tarmoqning kombinatsiyasi ishtirokchilarning individual neyron tarmoq modellariga nisbatan gaz suyuqligini separatsiyalashni bashorat qilish aniqligini yaxshilagan. Yig‘ilgan neyron tarmoq modeli ko‘rinmaydigan yeksperimental ma’lumotlar bo‘yicha yaxshi bashorat qilingan va operatorlar uchun o‘zgaruvchan operatsion kirish holatida separatsiyalash samaradorligini bashorat qilish orqali separatorni samarali boshqarish mumkinligi kursatilgan.

[5] Ushbu maqolada past haroratli, issiqlik bilan integratsiyalashgan separatsiyalash tizimlarini skrining qilish uchun yangi sintez tizimi taklif qilingan. Separatsiyalash variantlari sifatida bug‘latgich barabanlari, deflegmatorlar va oddiy va murakkab distillash qurilmalari olingan. Har bir muammo bir nechta qurilma tasvirlari bilan ishlab chiqilgan. Barcha yangi separatsiyalash variantlarining qisqartirilgan modellari taqdim etilgan. Separatsiyalash tizimi kondensatsiya sovutish tizimi yoki issiqlik integratsiyasi tomonidan ta’minlanadi. Barcha separatsiyalash jarayoni variantlarini joylashtirish uchun ketma-ketlikka asoslangan ustki tuzilma taqdim etilgan. Ushbu maqolada optimallashtirish stoxastik usul (genetik algoritm) yordamida amalga oshirilgan. Yondashuvni ko‘rsatish uchun turli hil amaliy tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan.

ISSN 3030-3907

[6] Ishda turli xil sovutgichlarning turli haroratlarda texnologik sovutish vazifalarini qondiradigan ta’siri ko‘rib chiqilgan. Xarajatlarni kamaytirish issiqlik bilan birlashtirilgan separatsiyalash ustunlarini samarali tahlil qilish va eng yaxshi sovutgichlarni tanlash orqali amalga oshirilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Amaliy tadqiqotlar orqali 29,7% xarajatlarni tejash ko‘rsatilgan. Keyinchalik, mavjud modellarning to‘g‘riligini va optimallashtirilgan strukturaning mustahkamligini tekshirish uchun erishilgan yechimlar bo‘yicha keng qamrovli termodinamik tahlil o‘tkazilgan. Ikki xil yondashuvdan foydalangan holda eksergetik tahlili (ya’ni oqim bo‘yicha va birlik operatsiyasi bo‘yicha) bir hil yekanligi ko‘rsatilgan, bu foydalanilgan modellarning aniqligini ko‘rsatgan.

[7] Ishda matematik modellashtirish usularidan keng foydalanish asosida past haroratlarda suyuq uglevodorodlar va suvdan gazning fizik-kimyoviy tabiati asosida Joule-Tompson effekti bilan separatsiyalash natijasida separatorning matematik modeli tuzilgan. Ushbu model asosida real vaqt rejimida past haroratli separatsiyalash jarayonining texnologik parametrlaridagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini bergan. U kimyoviy texnologiya tizimidagi qurilmalarda yuzaga keladigan o‘tishlarni o‘rganishga imkon beradigan dasturiy mahsulot sifatida amalga oshiriladi, shuningdek boshqaruv parametrlari tizimning texnologik parametrlariga ta’sirini o‘rganish imkoniyatini bergan. Ishlab chiqilgan matematik modelga asoslanib, past haroratli separatsiyalashda texnik xodimlarni tayyorlash uchun simulyator ishlab chiqish mumkin.

[8] Ishning dolzarbligi tayyorlanayotgan gaz sifatini oshirish va kompyuter modellashtirish tizimlaridan foydalangan holda past haroratli gaz separatsiyalash zavodlarining muhandislik-texnik xodimlarining malakasini oshirish zarurati bilan bog‘liq. Ishning maqsadi qurilmaning individual ish rejimlarining umuman texnologik tizimga ta’sirini o‘rganish uchun real vaqt rejimida past haroratli separatsiyalash moslamasining texnologik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni simulyatsiya qiladigan dasturiy ta’minot to‘plamini yaratish edi. Tadqiqot usuli sifatida kimyoviy va texnologik jarayonlarni matematik modellashtirish usuli tanlangan. Tadqiqotlar natijasida tizimning boshqaruv parametrlari (gaz va suyuqlikni boshqarish klapanlari) ta’sirini hisobga olgan holda past haroratli separatsiyalash moslamasining eng muhim yelementlaridan biri bo‘lgan uch fazali ajratgichni hisoblash uchun dasturiy modul yaratilgan.

[9] Maqola tabiiy gazni tayyorlashda qo‘llaniladigan past haroratli separatsiyalash jarayonlar va drossel (Joul-Tomson effekti) orqali gazni sovutish va kondensatni separatsiyalash texnologiyalariga bag‘ishlangan.

[10] Ishda gaz kondensat konlarida gazni uzoq masofaga uzatish va qayta tayyorlashda past haroratli separatsiyalash (PHS) usuli qo‘llanilgan. Ushbu usul

ISSN 3030-3907

ortiqcha bosimni cheklash orqali gaz oqimini sovutish va hosil bo‘lgan suyuq hamda gaz fazalarini mexanik tarzda separatsiyalashni o‘z ichiga olgan.

[11] Ishda tabiiy gazni past haroratda separatsiyalash uchun boshqaruv tizimi ko‘rib chiqilgan. Unda hozirgi kunda ishlatilayotgan klassik PID boshqarish bloklarini noaniq boshqarish bloklari bilan almashtirish taklif etilagan. MATLAB dasturiy paketidan foydalangan holda noaniq boshqarish tizimining bir varianti ishlab chiqilgan.

[12] Ushbu dissertatsiyada suyultirilgan tabiiy gaz ishlab chiqarish obektlarida uglevodorodlarni past haroratda separatsiyalash jarayoni bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. GIBBS dasturi yordamida past haroratli separatsiya jarayoni modellashtirilib, komponentlar tarkibiga bosim, temperatura va gazning tarkibiy qismlari ta’siri o‘rganilgan. Amaliy tajribalar asosida propan-butan fraksiyasini olishning iqtisodiy samasadorligi aniqlangan. Taklif qilingan texnologik yechim energiya tejamkorligi, uskunalar ishonchliligi va gaz transporti tizimida resurslarni ta’minlash bo‘yicha samarali ekanligi asoslab berilgan.

[13] Ishning dolzarbligi tabiiy gazni qayta ishlash sifatini yaxshilash zarurati bilan bog‘liq. Ishning maqsadi – past haroratli separatsiyalash qurilmasining texnologik parametrlaridagi o‘zgarishlarni real vaqt rejimida simulyatsiya qiluvchi dasturiy taminot paketi yordamida separatsiyalash jarayonini o‘rganish, hamda ish sharoitlaridagi o‘zgarishlarning alohida uskuna elementlari va butun texnologik tizimga ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning usuli sifatida kimyoviy jarayonlarni matematik modellashtirish usuli tanlangan. Misol tariqasida uch bosqichli separatorning kompyuter modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot ishida past haroratli separatsiyalash bo‘limining eng muhim elementlaridan biri bo‘lgan uch bosqichli separatorni hisoblash uchun dasturiy modul qo‘llanilgan, bunda boshqaruv tizimi parametrlari (gaz va suyuqlikni boshqarish klapanlari) ta’siri hamda uch fazali aralashmani separatsiyalash bo‘yicha qabul qilingan tamoyillari (Stokes qonuni, fazalar muvozanati qonunlari va boshqalar) bo‘yicha hisobga olingan.

[14] Ushbu maqolada past haroratli gaz separatsiyalash jarayonlarini optimallashtirishda genetik algoritm (GA) va simulatsion annealing (SA) nomli ikki mashhur stoxastik usulning xususiyatlarini o‘rganildi. Past haroratli separatsiyalash jarayonlarni GA yechimlarining sifatini tahlil qilishga qaratilgan. Uch xil holat tahlili yechimlarini optimallashtirish orqali shunday tizimlarda SA va GAga nisbatan barqarorroq va ishonchliroq ekanligi aniqlangan, shuningdek, SA usulidagi asosiy parametrlarni sozlash orqali optimallashtirish jarayoni erta konvergensiyadan saqlanib, eng yaxshi yaqin-global natijalarni berishi mumkin.

[15] Ishda integratsiyalashgan gaz kondensatini tozalash inshootining optimal texnologik rejimlarini aniqlash uchun termobarik parametrlarning istemol

ISSN 3030-3907

gazining rentabelligi va sifatiga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Parametrik sezgirlikning past haroratli separatsiyalash jarayonining asosiy parametrlariga ta’siri o‘rganiladi: istemol gazining chiqishi va uglevodorodlar uchun shudring nuqtasi harorati va o‘rnatishning eng samarali ish rejimlari tavsiya yetilgan.

[16] Ishda gazni PHS jarayonining mavjud matematik modellari gaz kondensati konining o‘zgaruvchan ish sharoitlarining optimal texnologik parametrlarni tanlashga ta’sirini to‘liq hisobga olmaydi. Matematik usullardan foydalangan holda barcha texnologik parametrlarning tendensiyasini har tomonlama baholash gaz kondensati konining ishlashi davomida ob’ektiv baholash va optimal texnologik parametrlarni tanlash imkonini bergan.

[17] Ishda gaz oqimining PHS jarayonini boshqarish mezoni shakllantirilgan. Namlikni separatsiyalash paytida sodir bo‘ladigan jarayonlarning dinamik xususiyatlaridagi farq ikki zanjirli boshqaruv tizimidan samarali foydalanish imkonini beradi. Jarayonning ekstremal regulyatorlaridan (ER) foydalanish istiqboli asoslanadi, bu obektning kirishi va chiqishi o‘rtasidagi vaqt kechikishlari bilan tavsiflangan. ER dan foydalanish orqali gaz oqimi parametrlaridagi buzilishlar ta’sirida boshqaruv jarayonining barqarorligini ta’minlaydi. MATLAB muhitida tanlangan mezonga muvofiq PHS jarayonining samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan bosqichli algoritm qo‘llaniladigan ER modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tanlangan mezonga muvofiq PHS jarayoni samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan bosqichli algoritm qo‘llanilgan.

[18] Ushbu ixtiro tabiiy gaz va gaz kondensatini qazib olish, yig‘ish va tashish uchun tayyorlash sohasiga, xususan, past haroratli gaz separatsiyalash zavodlarining ishlashini avtomatik boshqarishga tegishli. Taklif qilingan usulda magistral va kondensat quvvatiga yuborilayotgan gaz hamda sarfi va buffer sig‘imdagi kondensat darajasi ABT real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Ixtironing asosiy monitorgi ikkita PID-regulyator orqali (beqaror gazokondensat) sarfi va uning buffer sig‘imga kelib tushish balansi o‘rnatilishi, proporsionallik koeffitsienti Kp ni real vaqt rejimida hisoblangan. Bu tizim o‘tish jarayonlarida rejim “chayqalishi” ni bartaraf etadi, bunda (beqaror gazokondensat) ni MKP bo‘ylab bir fazali vaziyatda uzluksiz gaz-gidratlanishi hosil bo‘lfsligi kerak. Nasos agregatining ishlashi, kondensat quvvatining butun darajasida PHS qurilmasining ishonchli va optimallashtirilgan ishlab chiqarish ta’minlaydi.

[19] Ushbu ishda adaptiv neyro-noravshan boshqaruv tizimlarini o‘rganish uchun sun’iy intellekt nazariyasi, modellashtirish nazariyasi, funksional tahlil va genetik algoritmlardan foydalanilgan. Eksperimental tadqiqotlarda ishlab chiqilgan "NeuroAndFuzzy" kompyuter dasturi yordamida simulyatsion modellashtirish qo‘llanilgan.

ISSN 3030-3907

[20] Ishning maqsadi past haroratli gazni separatsiyalash qurilmasining texnologik sxemasiga kiritilgan, haqiqiy sanoat ob'ektining ishlashini simulyatsiya qilishga qodir bo'lgan va nazorat qilinadigan texnologik parametrlar va vaqtga qarab vaqtinchalik fizik-kimyoviy jarayonlarni namoyish yetadigan qurilmalarning statsionar bo'lmagan matematik modellarini yaratish edi.

[21] Ishda "KO'KDUMALOQ" konida gazni past haroratli separatsiyalash qurilmasining separatsiyalash harorati pasayishi bilan ishlab chiqarish imkoniyatlarini va "Ko'kdumaloq" ning ish rejimining optimal texnologik parametrlarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

[22] Ishda statsionar matematik modellarga asoslangan kompyuterli modellashtirish tizimlaridan foydalanish apparatlar ishlash parametrlarining noaniq o'zgarishlarini aniqlash va jarayonni to'liq baholash imkonini bermaydi. Shuning uchun gazni past haroratli separatsiyalash jarayonida statsionar rejimdan dinamik rejimga o'tishning ishlash ko'rsatkichlarini aniqlash uchun imitatsion dinamik modeldan foydalanilgan.

[23] Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor past haroratlarda tabiiy gazni separatsiyalash jarayoniga qaratilgan bo'lib. Tizim uchta issiqlik almashtirgich va gaz bosimini pasaytirish uchun uchta bosqichdan iborat qilib tanlangan. Separatsiyalash kolonnasining tarkibi va maqsadi ko'rsatilgan. Tadqiqot turli parametrlar, birinchi navbatda bosim, rektifikatsiya jarayoniga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bundan tashqari, tadqiqotda ingibitorning regeneratsiya qilish mexanizmi tushuntiriladi. Tizimda "Rektifikatsiya" quyi tizimidagi o'zaro bog'liq massa va issiqlik almashinuvi jarayonlarini o'z ichiga olgan, ularni dinamik nochiziqli matematik model yordamida tavsiflash mumkin. Bundan tashqari, tizim nochiziqli diskret-uzluksiz modelni o'z ichiga oladi. Diskret-uzluksiz model asosida berilgan boshlang'ich va chegaraviy shartlardan foydalanib, massa va issiqlik almashinuvining o'tkinchi jarayonlari olingan va o'rganilgan.

